

**AVTOPSIXOLOGIK LIRIKADA POETIK FORMA VA USLUBNING O'ZGARISHI:
EMILY DICKINSON IJODI MISOLIDA****E'tibor Ortiqova**

Qarshi davlat universiteti

“Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrası o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15870350>

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtopsixologik lirikaning poetika va uslubiy o‘zgarishlari Emily Dickinson ijodi misolida tahlil qilingan. Muallif avtopsixologik lirikaning jahon adabiyotidagi rivoji va uning turli adabiy oqimlar, xususan, romantizm, simvolizm, modernizm hamda ekzistensializm bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Emily Dickinsonning qisqa, ixcham shakldagi, o‘ziga xos punktuatsiya va metaforalarga boy she‘rlari ichki ruhiy kechinmalar, yolg‘izlik, o‘lim va vaqt kabi mavzularni chuqur ifodalashi bilan ajralib turadi. Maqolada shuningdek, Dickinsonning "Because I could not stop for Death" va "I felt a Funeral, in my Brain" kabi she‘rlari asosida avtopsixologik lirikaning mohiyati va uning badiiy uslubi batafsil yoritilgan. Tadqiqotda shoiraning ruhiy izlanishlari va o‘zlikni anglash jarayoni orqali adabiyotdagi avtopsixologik lirikaning yangi yo‘nalishlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Falsafiy lirika, Intim lirika, Psixologik lirika, Romantizm, Simvolizm, Modernizm, Ekzistensializm, Poetik eksperiment, Feminizm, Introspeksiya

Аннотация. В данной статье анализируются изменения поэтической формы и стиля автопсихологической лирики на примере творчества Эмили Дикинсон. Автор показывает развитие автопсихологической лирики в мировой литературе и её связь с различными литературными направлениями, такими как романтизм, символизм, модернизм и экзистенциализм. Короткие, лаконичные стихи Эмили Дикинсон, отличающиеся оригинальной пунктуацией и богатством метафор, глубоко выражают внутренние душевные переживания, одиночество, смерть и время. В статье также подробно освещается сущность автопсихологической лирики и её художественный стиль на примере стихотворений Дикинсон «Because I could not stop for Death» и «I felt a Funeral, in my Brain». В исследовании раскрываются новые направления автопсихологической лирики в литературе через душевные искания поэтессы и процесс осознания себя.

Ключевые слова: Философская лирика, интимная лирика, психологическая лирика, романтизм, символизм, модернизм, экзистенциализм, поэтический эксперимент, феминизм, интроспекция

Annotation. This article analyzes the changes in poetic form and style of lyric poetry of self-reflection through the example of Emily Dickinson's work. The author demonstrates the development of lyric poetry of self-reflection in world literature and its connection with various literary movements, particularly Romanticism, Symbolism, Modernism, and Existentialism. Emily Dickinson's short, concise poems, distinguished by unique punctuation and rich metaphors, deeply express inner psychological experiences, loneliness, death, and time. The article also provides a detailed exploration of the essence and artistic style of lyric poetry of self-reflection based on Dickinson's poems such as "Because I could not stop for Death" and "I felt a Funeral, in my Brain." The study reveals new directions of lyric poetry of self-reflection in literature through the poetess's spiritual quests and the process of self-awareness.

Keywords: Philosophical lyricism, Intimate lyricism, Psychological lyricism, Romanticism, Symbolism, Modernism, Existentialism, Poetic experiment, Feminism, Introspection.

Avtopsixologik lirika (ya'ni, shoirning ichki dunyosini tahlil etuvchi, o'z qalbidagi holatlarni she'r orqali ifodalovchi lirika) jahon adabiyotida ham alohida ahamiyatga ega. Bu yo'nalish ko'p hollarda falsafiy lirika, intim lirika, yoki psixologik lirika nomlari bilan ham yuritiladi. Jahon adabiyotida mazkur yo'nalish, ayniqsa, romantizm davridan boshlab shakllana boshlagan. Shoirilar o'z ichki kechinmalari, ruhiy izlanishlari, yolg'izlik, tashvish, hayot va o'lim, o'zlikni anglash, Alloh yoki tabiat bilan suhbat kabi mavzularga chuqur e'tibor berishgan.

Ushbu yo'nalish shoirning psixologik portretini she'riy til orqali tasvirlashga xizmat qiladi. Germaniyalik yozuvchi Johann Wolfgang von Goethening ijod mahsuli, "Faust" tragediyasida¹, shuningdek lirik she'rlarida insonning ichki izlanishlari, qarama-qarshiliklari aks ettirilgan. Uning "Yoshlik iztiroblari" asari — ichki psixologizm namunasi. Ingliz romantik she'riyatining eng mashhur vakillaridan biri Lord Byron "Childe Harold's Pilgrimage" asarida o'zini yolg'iz, jamiyatdan begona sezgan qahramon orqali tasvirlangan ichki kechinmalar ochiladi. Byron she'riyati — o'zining ichki iztiroblarini jamiyatdan qochish orqali ifodalagan avtopsixologik lirikaning yorqin namunasi. Fransuz shoiri, tanqidchi va tarjimon Charles Baudelaire "Les Fleurs du Mal" ("Yovuzlik gullari") to'plamida inson qalbining qorong'u, xavotirli, ichki azobli jihatlarini tasvirlangan. Baudelaire — modernizmga yo'l ochgan avtopsixologik poetika namoyandalaridan biri. Rus yozuvchisi Fyodor Tyutchev she'rlarida inson ruhiyati, tabiat va ong orasidagi murakkab aloqalar tahlil qilinadi. "O'zlik"ni tushunishga intilgan lirik qahramon — uning asosiy obrazidir.

Avtopsixologik lirikada — shoirning shaxsiy ruhiy holati, his-tuyg'ulari va ichki kechinmalari orqali ifodalanadi. Adabiyot tarixida avtopsixologik lirikaning shakllanishi va rivojlanishi ko'plab adabiy oqimlar va shoirlarning ijodi orqali amalga oshgan.

Xususan, Emily Dickinsonning ijodi bu jarayonning muhim qismidir. Emily Dickinson (1830–1886) — amerikalik mashhur shoir, jahon adabiyotidagi o'ziga xos, ta'sirchan lirik shoiralaridan biridir. U avtopsixologik lirikaning asoschilaridan biri hisoblanadi. To'liq ismi: Emily Elizabeth Dickinson bo'lib, 1800 dan ortiq she'rlar (hayoti davomida faqat bir nechta nashr etilgan) yozgan.

Emily Dickinsonning she'rlari, asosan, tinchlik, yolg'izlik, o'lim, hayot, vaqt, sevgi, Xudo va ong dunyosi tasvirlanadi. Uning she'rlari, asosan, 4 qatorli qisqa tuzilishga ega, lekin mazmuni ko'p ma'noli so'zlarga boy bo'lgan. Dickinson hayotining oxirgi yillarida o'zini butunlay jamiyatdan uzib, faqat yozishga e'tibor bergan. She'rlaridagi katta harflar, tirelar, klassik sintaksisdan chekinish va ritmlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning mashhur she'rlari "Because I could not stop for Death"², "I felt a Funeral, in my Brain", "Hope is the thing with feathers", "I'm Nobody! Who are you?" kabilarni tashkil etadi. Emily Dickinson bugungi kunda Modern adabiyotga katta ta'sir ko'rsatgan shoiralardan biridir. Feminizm, Psixologiya, Poetik eksperiment kabi mavzularda tadqiqotlar uchun asos bo'lgan ijodkor. Uning avtopsixologik lirikasi o'z ruhiy holatini she'riy tilda ifoda qilish bo'yicha jahon adabiyotidagi eng kuchlilardan biri ekanligini isbotlaydi. Dickinsonning she'riyati inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini ochib berishga qaratilgan. Uning asarlarida ichki kechinmalar, o'lim, vaqt, yolg'izlik kabi mavzular keng yoritiladi.

Dickinson ijodida poetik forma va uslub an'anaviy shakllardan farq qiladi: Qisqa va ixcham shakl shoiraning she'rlarida o'z aksini topgan.

¹ Goethe, J. W. von. (2005). *Faust*. Tarjima: A. Jo'rayev. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

² Dickinson, E. (1960). *The Complete Poems of Emily Dickinson*. Little, Brown and Company.

An'anaviy uzun she'rlar o'rniga, u ko'pincha faqat bir necha qatordan iborat she'rlar yozgan. Dickinson she'rlarida punktuatsiya va bosh harflardan o'ziga xos tarzda foydalangan, bu esa ularning o'qilishi va talqinini murakkablashtiradi. U o'z she'rlarida o'lim, abadiyat, vaqt kabi mavzularni no'an'anaviy metafora va ramzlar orqali ifoda etgan.

Dickinsonning ko'plab she'rlari shoiraning o'z ichki dunyosi bilan muloqoti sifatida yozilgan. Emily Dickinsonning "Because I could not stop for Death" she'ri avtopsixologik lirikaning namunasidir. Bu she'rda o'lim mavzusi shoirning ichki dunyosida qanday qabul qilinishi va unga qanday munosabat bildirilishi tasvirlangan. She'rning poetik formasi oddiy, lekin mazmuni chuqur va ko'p qatlamli. She'rlari avval katta e'tibor qozonmagan bo'lsa-da, bugungi kunda avtopsixologik lirikaning yetuk namunasiga aylangan. Avtopsixologik lirika O'zini anglash, **"men"** va **"borliq"** o'rtasidagi aloqalar, ichki iztirob va ruhiy qarama-qarshiliklar, hayot, o'lim, yolg'izlik haqida falsafiy fikrlar, ruhiy tushkunlik, hissiy teranlikni o'zida aks ettiradi. Shoir o'z qalbi bilan muloqotda bo'ladi. Ichki holati obrazlar orqali beriladi.

Ruhiy murakkablikni ifodalash uchun hayotiy savollar va o'zlik izlanishi kuzatiladi. XX asrda keng tarqalgan Adabiy oqimlar: Romantizm – lirik qahramonning jamiyatdan ajralgan holatini tasvirlanishi, Simvolizm–ichki holatni timsollar orqali ifodalanishi, Modernizm – ruhiy tushkunlik, begonalik, o'zlik inqirozi, Ekzistensializm – inson va borliq, tanho hayot haqida psixologik tafakkur kabi mavzular muhim ahamiyat kasb etadi. Dickinsonning she'rlari bevosita o'z qalbi, fikrlari, tuyg'ulari, qo'rquv va istaklari bilan suhbat tarzida yozilgan. Uning deyarli barcha she'rlari — bu ichki monolog, subyektiv tajriba, ong oqimi, xayoliy sukunatdagi teran tahlil namunalaridir. Shoir uslubida Sintaktik buzilishlar (qisqa satrlar, odatiy grammatikani buzgani bilan mashhur), Punktuatsiya o'rniga chiziqcha (—) ishlatishi, Qolipga sig'magan fikrlar va tajribalar bilan o'ziga xoslik mavjud. Jumladan, quyidagi misralarni tahlilga tortamiz.

"I felt a Funeral, in my Brain"

I felt a Funeral, in my Brain,

And Mourners to and fro

Kept treading – treading – till it seemed

That Sense was breaking through – ³

Bu she'rda ongda ruhiy bosim, ruhiy halokat, psixologik og'riq aql bovar qilmaydigan obrazlar orqali berilgan. Emily Dickinson — jahon adabiyotida avtopsixologik lirikaning eng yorqin va chuqur namoyondasi hisoblanadi. Uning ijodi orqali o'zlik, ruhiy iztirob, shaxsiy erkinlik va ruhiyatning eng nozik qatlamlariga chuqur nazar tashlanadi. Ushbu she'r avtopsixologik lirikaga mansub bo'lib, unda shoiraning ichki holati, ruhiy iztiroblari va ongida kechayotgan og'ir hissiy jarayonlar obrazli ifoda etilgan. U tashqi voqeani emas, ruhiyatda kechayotgan "marosim"ni, ya'ni o'z xotirjamligi, hushyorligi, balki aqliy barqarorligi ustidan o'tayotgan motam marosimini tasvirlaydi.

"Miyamda go'yoki dafn marosimi bo'ldi". Bu misra bevosita ichki ongda iztirobli holatni ko'rsatadi. "Dafn marosimi" bu yerda real voqea emas, balki ongda sokinlik, iymon, yoki hatto aql barqarorligining o'limi ramzi sifatida ishlatiladi.

³ Dickinson, E. (1960). *The Complete Poems of Emily Dickinson*. Little, Brown and Company.

“O‘tib qaytgan motam tutar odamlar”

Bu obraz – aql va his-tuyg‘ularni siquvchi fikrlar, insonni tinimsiz o‘ylarga giriftor etuvchi esdaliklar, xotiralar yoki tashvishlardir. “Motam tutar odamlar” – ongdagi g‘amli fikrlar va kuchli psixologik bosim belgisi.

“Ular bosar edi og‘ir qadamlar bilan”

Bu satrda takrorlanuvchi, zerikarli, tinimsiz fikrlar – ya‘ni ongni ezuvchi kuchli ichki ruhiy bosim aks ettirilgan. “Og‘ir qadamlar” hissiy yuklamaning og‘irligini anglatadi.

“Tuyuldiki, hushim yorilib chiqay deb turar”

Bu satr eng muhim turning nuqtasi. Ruhiy holat shu qadar chigal va bosim ostida ekanki, **insonning hushyorligi sinish arafasida**. Bu — depressiya, aqliy beqarorlik, yoki shunchaki og‘riqli fikrlardan portlash darajasidagi holatdir.

Dickinson bu she‘rida ruhiy inqirozni marosim shaklida obrazlashtiradi. U bu yerda tashqi dunyoni emas, o‘z ruhiyatini kuzatadi. She‘rdagi sokin, ammo og‘ir sur‘at – depressiv holat, “hushning yorilishi” esa – ongning bosimga chiday olmay to‘qnashuvi. She‘rda shaxsiy tajriba asosiy o‘rinda turadi. Ichki ruhiy jarayonlar tasvirlanadi. Qahramon — o‘z fikrlari va holati bilan yolg‘iz qoladi. Real voqelik emas, psixik jarayonlar markazda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

Dickinsonning she‘rlarida inson ongi va ruhiyatida kechuvchi og‘ir ruhiy bosim holatini o‘ziga xos poetik va metaforik ifoda bilan berishga urinilgan. Bu nafaqat badiiy asar, balki psixologik kuzatuv va introspeksiya (o‘ziga qarash) namunasi hamdir. Qolaversa, inson ruhiyatining nozik, lekin chuqur qatlamlariga nazar tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Goethe. J. W. von. (2005). *Faust*. Tarjima: A. Jo‘rayev. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.
2. Dickinson. E. (1960). *The Complete Poems of Emily Dickinson*. Little, Brown and Company.
3. Vendler. H. (2010). *Dickinson: Selected Poems and Commentary*. Belknap Press.
4. Byron. G. G. (2005). *Childe Harold’s Pilgrimage*. London: Penguin Classics.
5. Baudelaire. C. (1993). *The Flowers of Evil (Les Fleurs du Mal)*. Oxford: Oxford University Press.
6. Eshtemirova. M. (2024). Gulandam To‘g‘aevaning lirikasida peyzaj va ruhiy tasvir. *Yangi O‘zbek adabiyoti va nazariyasi*, Qarshi davlat universiteti.
7. Yusuf.N. (2022). Avtopsixologik lirika va uning rivoji. *Adabiyotshunoslik Jurnali*.